

ALEKSANDR ARKADOVICH FAYNBERG IJODIDAN NAMUNA VA
IZOHLAR TO'PLAMI

Eshnazarova Gulsanam Faxriddin qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz filologiyasi 1-kurs talabasi

Gulsanameshnazarova5@gmail.com

Ilmiy rahbar: Bannopova Z.X

Annotatsiya: Aleksandr Faynberg dunyo miqiyosida o'z bilimni olamga tanita olgan ijodkordir. Dastaval bu bilimlari orqali ko'plab unvonlarni qo'lga kiritgan, keyinchalik esa avlodlari tomonidan e'tiroflarga sazovor bo'lgan ijodkorimizning asarlari hali hanuz barhayot yashab kelmoqda. Bugungi maqolamizda ham bu ijodkorni aynan qaysi asari va qanday yo'nalishda qalam tebratgani orqali ma'lum va mashhur bo'lganligini bilib olishimiz mumkin. Aleksandr Faynberg "Velotreklar", "Etyud", "Soniya", "Bir lahza", "Erkin sonetlari", "Qisqa to'lqin", "Olis ko'priklar", "Yoyma to'r", "Osmon muhri", kabi she'riy to'plamlar muallifi hisoblanadi. Bu ijodkor nafaqat nazmda balki nasrda ham qalam tebratadi. Undan tashqari bir necha tarjimalari butun olamga mashhurdir.

Kalit so'zlar: lingvistik tahlil, semantic tahlil, she'riy timsollar, asar mohiyati, o'xshatishlar va Vatan timsoli.

Kirish: Aleksandr Faynbergni biz turli xil janrlarda o'zini ko'rsata olgan shaxsdir desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki tarjima ishlarida jumladan: Erkin Vohidovning "Ruxlar isyoni", va Toshkentda esa "Lebedinaya staya" to'plami Abdulla Aripov, Xosiyat Rustamova, Sirojjidin Said va Omon Matjon, Alisher Navoiy kabi adiblarimizni she'riy to'plamlarini tarjima qilgan hisoblanadi. Undan tashqari bir necha badiiy film va yigirmaga yaqin multifilmlar uchun ssenariy yozgan. Aleksandr Faynberg she'rlari esa ingliz, fransuz, ispan tiliga tarjima qilindi. Uning "Chig'ir" she'riy kitobi o'quvchilar qo'lga yetib bordi. Shuningdek, u Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan o'n uchta she'riyat to'plamining muallifi. Uning

qalamiga yetti badiiy film ssenariysi tegishli, eng muhimlari-“ko’k osmonning o’zida”, “ issiq quyosh ostidagi uy”, “Qandahor ostidagi uy “, “ Qandahor ostida yonib ketgan “, shuningdek, u 18 ta animasion film ssenariysi muallifi. Uning nasri esa ko’p shoirlarimizda katta qiziqish uyg’otdi.

Shoir 2009-yilga qadar Rossiya Prezidenti Farmoni bilan Pushkin medaliga sazovor bo’lgan. U Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish va rus tili va rus madaniyatini saqlashga qo’shgan ulkan hissasi uchun ushbu yuksak mukofotga sazovor bo’ladi. Muallifning uzi tomonidan to’plangan she’riy to’plamlari esa turli xil jurnallarda chop ettiriladi. “ Velotrekklar”, she’rini (1965)-yil,” Etyud “ (1967)-yil,” Bir lahza” (1969)-yil, “she’rlar “ (1977)-yil, “uzoq ko’priklar” (1978)-yil, “Osmon muhri “ (1982)-yil, “Qisqa to’lqin “ (1983)-yil, “Dengiz” (1986)-yil, “ Erkin sonetlar” (1990)-yil, “ Yig’lamang yo’l “ (1997)-yil, “Kon” (2000)-yil,” Barg” (2008)-yillarda yozilgan. Uning she’rlari insonga o’zgacha rux bag’ishlamay qolmaydi. Masalan:

SAVOI

Balki dard, ko’z yoshidan

She’rimizda malohat?

Balki ilon nishidan

Yurakdagi jarohat?

Balki achhiq tutundan

Baytlar o’tli, barkamol?

Balki izg’irin kundan

Yurakni teshar shamol?

Qadahda may limmo-lim-

Avj olgaydir, kuy g’azal?!

Bir boshga bitta o’lim-

Qo’rqitilmagay ajal?!

Balki yulduz konida

Bizning yonbimiz nihon?

Javob yo'q zamonida,

Hech kim bilmas. Hech qachon.

She'r shunday tushunchaki shoir aytganidek; tusatdan hech kim kutmagan vaqtda to'lg'oq misol insonni junbushga keltiradi. Aleksandr Faynberg ham she'rimning bor malohati, balki dardlarimdandir deb aytib o'tadi. Darhaqiqat manolog va ritorek so'roq gap misolida aytilgan bu jumlar insonlarni o'yga solmay qolmaydi.

Xulosa: So'z shunday tushunchaki tug'ri qalblardan-qalblarga yetib boradi. Aleksandr Faynberg ijodidagi har bir misra ham insonlar qalbida chuqur joy egallab kelmoqda. Biz bu misralarni tilga olar ekanmiz bunday yashirin misralarda olam-olam ma'no yashirin ekanligini bilamiz va shu bilan birga shoirni tassuroot olamiga ham hayrat ko'zi bilan qaraymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Amina cyberlninka.ru/article/n/aleksandr-faynberg-ijodiy-merosi/viewer

Toshkent 2024

2. n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she'riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009

3. M. Mohinabonu Faynberg haqida

spaceknowledge.com/index.php/JOISRMVI/article/view/1331 Toshkent 2024